

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ
ВАЗИРЛИГИ**

**АЖИНИЁЗ НОМИДАГИ НУКУС ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА
ИНСТИТУТИ**

ЎЗБЕК ТИЛИ КАФЕДРАСИ

**ФИЛОЛОГИК
ТАДЌИҚОТЛАР**

ТОШКЕНТ – 2017

УЎК: 82.091

КБК 80в7

X-87

X-87

Филологик тадқиқотлар. –Т.: «Fan va texnologiya», 2017, 156 бет.

ISBN 978–9943–11–541–5

Мазкур илмий тўпламда республикамизнинг олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари педагог-ходимлари, илмий ходимлар, изланувчи-тадқиқотчилар, магистрантлар, талабалар ҳамда мактаб ўқитувчиларининг тилшунослик ва адабиётшуносликнинг илмий-назарий масалалари, методикага бағишиланган мақолалари ўзбек, қорақалпоқ тилларида тақдим қилинган.

Тўплам материалларининг мазмуни ва унда келтирилган манбаларнинг тўғрилигига муаллифлар шахсан масъулдир.

УЎК: 82.091

КБК 80в7

Масъул мұхаррір:

М.Т.Худаярова – фил.ф. н., Нукус ДПИ

Тақризчилар:

И.Казаков – фил.ф.н., КДУ;

Э.Хўжаниёзов – фил.ф.н., Нукус ДПИ.

Мақолалар тўпламини Нукус давлат педагогика институти Илмий, ўқув методик Кенгашининг 2017 йил 18-майдаги 8-сонли қарори билан наширга тавсия этилган.

ISBN 978–9943–11–541–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2017.

gani tafsinga loyiqdir. Bu jarayon mustaqillik davri o‘zbek she’riyatining yetakchi tamoyillaridan biri desak xato bo‘lmash.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent, 2002.
2. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. – Toshkent, 2013.
3. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – Toshkent, 2011.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDA KO‘MAKCHILAR

Ibodullayeva I. – O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1- kurs magistranti

Ko‘makchilar o‘zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar ham o‘rganish obyekti bo‘lgan va buning natijasida katta-kichik maqolalardan tortib, monografik yo‘nalishdagi ishlar yuzaga kelgan.

Jumladan, H.Berdiyorovning “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida ko‘makchilar” mavzusidagi (Samarqand, 1949), X.T.Axtamovaning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida murakkab analitik shakllar” nomli nomzodlik dissertatsiyalari (Toshkent, 1981), A.N.Kononovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ko‘makchilar” (Toshkent, 1951), Sh.Shoabdu-rahmonovning “O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar” (Toshkent, 1953), R.Rasulovning “O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning semantik-grammatik xususiyatlari”, T.Rustamovning “O‘zbek tilida ko‘makchilar” (Toshkent, 1995), “Sof ko‘makchilar” (Toshkent, 1991) monografiyalari bevosita o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning lingvistik tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida ko‘makchilar har tomonlama o‘rganishga bag‘ishlangan va tadqiqot ishlari bugungi kunda ham davom etmoqda. Shunday ekan, biz o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ko‘makchilarning o‘xshash va farqli tomonlarini o‘rganishga harakat qilamiz.

O‘zbek tilida ot yoki otlashgan so‘zdan keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga tobelanish asosida birikishini ta’minlaydigan so‘zlar **ko‘makchi** deyiladi. Ko‘makchilar tuslanmaydi va yasalmaydi. Gapda o‘zi bog‘langan so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘ladi va bir xil gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Qoraqalpoq tilida ”ko‘mekshi sozler” atamasi o‘zbek tilidagi yordamchi so‘z turkumlari atamasiga tengdir. ”Ko‘makchi so‘zlar grammatik atamasi yakka holda qo‘llanmaydigan va o‘zining leksik ma’nosи yo‘q yoki leksik ma’nosи noaniq bo‘lgan yoki yo‘qolgan so‘zlarni tushunamiz” [1: 234-235]. O‘zbek tilidagi ko‘makchilar atamasiga qoraqalpoq tilida “*tirkewishler*” atamasi to‘g‘ri keladi. ”Ko‘makchilar o‘zi bilan bog‘langan so‘zdan keyin kelib, shu so‘zlarning ma’lum shaklda turishini talab etadi va o‘zi bog‘langan so‘zning gapdagi boshqa so‘zlar bilan grammatik aloqasini aniqlash uchun xizmat qiladi” [1: 236].

O‘zbek tilida ko‘makchilar ma’no xususiyati va kelib chiqishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Sof ko‘makchilar.
2. Funksional ko‘makchilar (*ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlar*).

1. Sof ko‘makchilar o‘z lug‘aviy ma’nolarini butunlay yo‘qotib, qo‘llanishiga ko‘ra kelishik qo‘shimchalariga yaqin turadigan so‘zlardir: uchun, kabi, bilan, sayin, singari, uzra, qadar, yanglig‘.

2. Funksional ko‘makchilar (*ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlarga* ot, sifat, ravish va fe’l turkumidan ko‘makchiga siljigan, gapda ba’zan o‘z ma’nosida, ba’zan ko‘makchi vazifasida qo‘llanadigan so‘zlar kiradi. Ular: tomon, burun, ilgari, boshqa, keyin, tashqari, chamasi; sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog‘li, doir, muvofiq, o‘zga; qarab, qaraganda, bo‘ylab, yarasha, qaramasdan, qarata, tortib, ko‘ra; avval, so‘ng, burun, beri, buyon, asosan, binoan, keyin, oldin kabi so‘zlardir.

Qoraqalpoq tilida esa ko‘makchilar ma’no xususiyatiga ko‘ra guruhlarga ajratilmaydi, balki barcha ko‘makchi so‘zlar oldin leksik ma’nosiga ega bo‘lgan, keyinchalik vaqt o‘tishi bilan o‘z ma’nosini, shaklini (ba’zilarining shakli saqlangan) o‘zgartirib ko‘makchi so‘zga aylangan, natijada yangi grammatik kategoriya paydo bo‘lgan degan xulosaga kelingan. Masalan, *benen*, *menen* ko‘makchilari “bir” degan son so‘z turkumidan ko‘makchi bo‘lib qoliplashib ketgan. Qadimgi yodgorliklarda bu ko‘makchi “birla” shaklida qo‘llangan. Bundan tashqari, boshqa qator ko‘makchilarni ham hozirgi shakliga qarab qanday so‘zdan kelib chiqqanligini bilib olish mumkin. Masalan: *arqali* (*arqa*), *boyi* (*boy*), *ko‘re* (*ko‘r*) [1: 237] kabi.

Qoraqalpoq tilida *tirkewishler* (ko‘makchilar) kelib chiqishiga qarab uch guruhga bo‘linadi:

1. Tu’pkilikli tirkewishler.

2. Atawish tirkewishler.

3. Feyil tirkewishler [2: 111].

Qoraqalpoq tilidagi *tu'pkilikli tirkewishler* o'zbek tilidagi sof ko'makchilarga to'g'ri keladi. Bularga, bilan, uchun, kabi, sayin, singari, yanglig' ko'makchilar mansub.

Atawish tirkewishler esa ot va ravish so'z turkumlaridan ko'makchi so'zlarga o'tgan ko'makchilar kiradi. Masalan: keyin, oldin, yaqin, yonida, ustida, orqasida, ichida kabi.

Feyil tirkewishler guruhi ko'makchi vazifasiga o'tgan fe'l so'z turkumidagi so'zlar kiradi: boshlab, qarab, qaramasdan, qaraganda va h.k.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi ko'makchi so'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqdik. Ko'makchilar gapda so'zlarni grammatik tomondan bog'lab, gap ma'nosiga ta'sir qiluvchi vosita ekanligi ikki tilga ham xos xususiyat ekanligini aytmoqchimiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Na'sirov, Berdimuratov. Ha'zirgi qaraqalpaq tili. Morfologiya. – No'kis: Qaraqalpaqistan, 1981, 234-237 b.

2. A. Da'wletov, M. da'wletov, M. Qudaybergenov. Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. – No'kis, 2010, 111 b.

ЭРКИН ВОХИДОВ ИЖОДИДА ВАТАНПАРVARЛИК МАДХИ

Хафизова М. – Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти Ўзбек тили ва адабиёти факультети 3 курс талабаси

Бадиий адабиёт орқали инсон қалбига кириб, унинг қалб ҳақиқати англанади. Шу маънода, шеърият олами ҳам ўзига хос мафтункор ва бетакрордир. Шоир ўз ботинидаги эзгу ва ҳаммага ошкор этилмаган чин ҳис-туйғулари-ю, кўнгил кечинмаларини сўз воситасида турли бадиий санъатлар орқали ифодалаш учун мashaқатлар чекади.

Эркин Воҳидов – адабиётимизнинг буюк шоири, ҳалқимизнинг буюк фидойиси бўлган улкан сиймодир. Бугунги адабиёт ихлос-мандлари ва кенг жамоатчилик учун унинг ижоди тарбия ўчоги бўлиб хизмат килиб келмоқда.

Bekchanova S., Ibodullayev Sh.	Sa'dulla Hakim ijodida zamon talqini	121
Allambergenova N.,	"Me'mor" romanidagi badia matonati va jasorati.....	124
Ismailova Yu.		
Tajiyeva A.,	Ingliz tilidagi so'zlarning kundalik hayotimizdagi ahamiyati	126
Muxammadiyarov A.		
Ruzimov Sh.,	Zamirjon Butayev va Zuhra Nuritdinova lug'atlarining	128
Muxammadiyarov A.	yutuq va kamchiliklari.....	
Muxammadiyarov A.,	Shavkat Butayev, Ulug'bek Isaqov tuzgan inglizcha-	
Sultanova N.	o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'atlarning yutuq va	
	kamchiliklari.....	130
Matjanov Sh.	Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan	
Ibodullayeva I.	shakllangan frazeologizmlar.....	132
Хафизова М.	She'riyatda shoir shaxsiyati va lirik qahramon talqini.....	135
Rajabova M. Sh.	O'zbek va qoraqalpoq tillarida ko'makchilar.....	138
Jumamuratova S.S.	Эркин Вохидов ижодида ватанпарварлик мадхи.....	140
	Hamma davrlar uchun dolzarb she'riyat.....	143
	Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan olmoshlar.....	147

Тошкент – «Fan va texnologiya» – 2017

Муҳаррир: **Ф.Исмоилова**
Тех. муҳаррир: **Ф.Тешабаев**
Мусаввир: **Д.Азизов**
Мусахҳиха: **Н.Ҳасанова**
Компьютерда
саҳифаловчи: **Ш.Мирқосимова**

E-mail: tipografiyacnt@mail.ru Тел: 245-57-63, 245-61-61.
Нашр.лиц. А1№149, 14.08.09. Босишга рухсат этилди: 19.07.2017.
Бичими 60x84 1/16. «Times Uz» гарнитураси. Офсет усулида босилди.
Шартли босма табоби 9,0. Нашр босма табоби 9,5.
Тиражи 100. Буюртма №2104.

«Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтининг»
босмахонасида чоп этилди.
Қорақалпоғистон Республикаси, Нукус шаҳри,
А.Дўстназаров кўчаси, 104-уй.